

OO KEMA ASARIDA MIFOLOGIYA VA RAMZLAR TASVIRI

Raxmatova Xurshida Eshmaxammat qizi

JDPU talabasi

ANNOTATSIYA

Maqolada Chingiz Aytmatovning naqadar mohir ekanligi ta'kidlanadi. "Oq kema" asarida mifologiya va ramzlardan juda o'rinli foydalanilgan o'rinlari aytib o'tiladi. Maqolada qahramonning xarakteriga tavsif berilgan.

ANNOTATION

The article emphasizes how talented Chingiz Aitmatov is. The places where mythology and symbols are used very appropriately in the work "The White Ship" are mentioned. The article describes the character of the hero.

Kalit so'zlar: "Oq kema", Chingiz Aytmatov, xarakter, bola, Mo'min chol, Jamila.

Juda ham ko'plab kitobxonlar qalbini zabt etgan yozuvchi Chingiz Aytmatov chinakam iste'dod egasidir. U yozgan asarlari dunyoning turli burchaklariga ham yetib borgani bejiz emas, albatta. Bu asarlardagi qahramonlar oddiy odamlar orasida uchrovchi kishilardir. Bilamizki asarda xarakter masalasi juda jiddiy. Aynan shu jihat asarning butun mohiyatini belgilaydi desam mubolag'a bo'lmas. Xarakterga tavsif beradigan bo'lsak "Xarakter tasviri asarning mazmunini "badiiy axborot"ga aylantiradi. Xarakterning bir xususiyati bunga xizmat etadi: xarakter hayotiy haqiqatni aniq hissiy shaklda aks ettiradi, ya'ni asar mazmuni xarakter tasviri tufayli hayotiy aniqlik kasb etadi va shu bilan birga bizning hislarimizga ta'sir etish xususiyatiga ega bo'ladi".[3] Qahramonga faqat ijobiy va salbiy jihatlar berish orqali xarakter bera olmaymiz. Lekin Chingiz Aytmatov bu masalada juda mohir. Uning birgina "Oq kema" asarida uchrovchi Mo'min chol xakteri ham yozuvchining naqadar noyob iste'dodga egaligidan dalolatdir. Balki bunga uning bolaligi o'tgan muhit ham sababchidir. Uning "Yuzma-yuz", "Asrga tatigulik kun", "Jamila" kabi asarlari ham juda mashhur. Yozuvchi qirg'iz xalqi nomini, odatlarini asarlari orqali olamga yoydi deyishimiz ham mumkin. Uning asarlari orasida "Oq kema" asari men uchun „shoh asar“dir. Sababi uning qahramoni - bola. Yana qanday bola deng- orzu qilishdan to'xtamaydigan, Shoxdor ona bug'u ertagiga ishongani kabi umid qilishdan tolmaydigan, jasur, atrofdagi nopokliklarga tushuna olmay joni halak, butun hayotini mo'jiza qutqarishiga ishongan bola! Yana qanday bola deng- kimsasiz, yolg'iz, hammadan berkitib shiroljinlar panasida yig'lab oluvchi bola. Ota-onasi yo'q, to'g'ri ular borku lekin buni unutilgan: xuddi hamma singari.

Chingiz Aytmatov asarlarida mifologiya ham juda yaqqol namoyon bo‘ladi. Bunda voqealar yunonlarnikidek samoda emas, balki yerda - odamlar orasidadir. Qahramonlar ko‘pincha tush ko‘rib, yoki nimagadir aylanib qolib yoki bo‘lmasa boshqa jihatlar bilan o‘z orzusiga yetishishga umid bog‘laydi. Asardagi bola ham baliqqa aylanib oq kemaga- o‘z orzulariga yetishmoqchi. Oq kema ham bunda ramz. Uning rangidan ham bilishimiz mumkinki u bolaning qalbi, orzulari singari oppoq. U poklik, orzularni ushaltiruvchi majoz bo‘lsa, shu o‘rinda bolani bu kattalarning chirkin hayotidan olib ketuvchi hamdir. Uning yetimligini doim yodiga soluvchi, “og‘zidan oq it kirib, qora it chiquvchi” buvidan, mo‘mingina otasini erining xatosi uchun qarg‘aydigan qizdan, butun hayotini johillik qamrab olgan O‘rozqulning yonidan olib ketuvchi “oq kema”. Asarda bundan tashqari “tuya”, ”tank”, “egar” kabi nomlar toshlar ham bor. Bular bolaning do‘stlari. Ularning yonida o‘ynaydi, o‘zining bola ekanligini his etadi. Bola zararli o‘tlarni esa o‘ziga dushman deb biladi va ular bilan “olishish”da to‘xtamaydi. Shiroljinlar esa uning ko‘z yoshlarini berkitadi, bola ularni yaxshi ko‘radi. Axir u 7yoshli bolakay. U nega bekitib yig‘lashi kerak? Uning yoshida bo‘lar-bo‘lmasga ham ota-onasiga xarxasha qilish, yig‘lash tabiiy holat edi aslida. Lekin bola o‘z navbatida “bola” emas. U o‘yinqaroq va sho‘x emas. Uni atrofdagi odamlar shu ko‘yga solgan. Uni ulg‘aytirib qo‘yishgan.

Bu asarda qahramonlar qismati juda ayanchli deyish ham mumkin. Hammaga yaxshilik qiluvchi, ertaklarga ishonib, uni bolaga so‘zlab beruvchi Mo‘min cholning el orasida hurmati yo‘q. Uni hamma “san”lab gapirishi, hattoki qo‘pol hazillar qilishi” ham mumkin. U hech kimdan gina qilmaydi. Yozuvchi uni "kamdan kam uchraydigan baxtli odam" deyishi ham shundan. Uning topganlari ham sarob. Yolg‘iz o‘g‘li, tirgagi halok bo‘lgan, ayoli o‘g‘lining dardida kuyib olamdan o‘tgan, hozirgi xotini bo‘lsa uni hurmat qilish qayoqda deysiz uni qarg‘ashdan bo‘shamaydi. Katta qizi farzandga zorligi uchun kunda eridan kaltak yesa, kichik qizi farzandi qadriga yetmay uni tashlab shaharga ketadi. Ular yashaydigan xo‘jalikda 3 oila bor. Ular og‘ir sharoitda yshashsada hayotlarini o‘zgartirish uchun harakat ham qilishmaydi, balki ko‘nikib qo‘ya qolishgan. Bola bo‘lsa maktabga boradi. Uni bobosi har kuni juda uzoq masofaga maktabga olib borib keladi. U bolaning birdan -bir g‘amxo‘ri. Uni ertaklarga, orzularga ishontirib boruvchi inson. Ammo ming afsuski aynan shu qahramonning o‘zi bolani orzularidan ayirishga majbur. U ona bug‘uni o‘ldirib o‘zining o‘tmishini ham bolaning kelajagini ham vayron etadi.

Asarda Shoxdor ona bug‘u ertagi ham juda katta vazifa bajargan. Bola bu ertakni juda ko‘p eshitgan. O‘zi ham va bu ertakni aytib berib charchamaydigan bobo ham bu ertakka juda ishonadi. Bola hattoki bu bug‘uni farzandsiz bo‘lgan Bekey xolasi uchun shoxlarida beshik ko‘tarib keladi deb juda-juda umid qiladi. Ammo orzular sarob... Bola bu bug‘uning o‘limiga guvoh bo‘ldi. Endi uning orzu qilishga majoli ham qolmagan chunki bug‘u bobosining qo‘lida ajalini topadi-da. Bundan atrofdagi hech

kim xafa ham emas. Ular bermalol bolaning orzularini ro'yobga chiqaruvchi, unga umid bag'ishlab turuvchi, bir vaqtlar ularning ajdodlarining hayotini saqlab qolgan bug'uning go'shtini tanovul qilishyapti va bola bu manzaraga uzoq guvoh bo'la olmadi. U tark etdi... Hamma-hammasini... Baliqqa aylanib oq kemaga yetib bormoqchi bo'lgan bola qismati shunday ayanchli yakun topdi. U bu muhitda yashashga ortiq bardosh bera olmas edi. Inson orzularsiz, umidsiz, yaxshiliksiz qanday yashab bo'ladi, axir. Buni esa kattalardan ko'ra bolalar yaxshiroq anglab yetishadi

Bu asar 7 yoshli bola haqida. Aynan bola obrazi bosh qahramon sifatida tanlab olingan. Uning ajib dunyosi bor. Ota-onasi uni tashlab ketganiga odamlarning unga muomalasiga qaramay u o'z ertaklari bilan baxtli. Uning bobosi Mo'min chol unga ham ota, ham ona. Bolalik beg'ubor olam, baxtli davr. Bola ham eshitgan ertaklarini hayotga, hayotini ertakka aylantirishni xohlaydi. Bola ezgulikka tashna. Chingiz Aytmatov ham bola nigohida butun dunyoga, dunyo bo'lganda ham qanday, chirkin dunyoga nazar tashlaydi. Bolaning do'stlari toshlar, gullar, durbin va portfel. Bola ular bilan vaqt o'tkazadi, ularga hayoti haqida so'zlaydi, asrab-avaylaydi. Bolalar kattalardek emas. Ular dunyoga o'z orzulari bilan nigoh tashlashadi. Ular uchun mohiyat ezgulikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Chingiz Aytmatov. "Oq kema". Qissa, www.ziyouz.com kutubxonasi.
2. Izzat Sulton. "Adabiyot nazariyasi". T.- "O'qituvchi". 2005, - 75 bet.